TEMUR HAYOTI VA MA'NAVIY MEROSI – YOSH AVLODNI YANGI ANDIJON BUNYODKORLARI ETIB TARBIYALASHDA MUHIM MANBA

Davronova Rashidaxon
Andijon viloyati pedagogik mahorat mararkazi
Ijtimoiy- iqtisodiy fanlar metodikasi kafedrasi katta o'qituvchisi.

Annotatsiya. Ushbu maqolada Buyuk Temur va temuriylar davrining tarixiy hamda ma'naviy merosi yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdagi o'rni ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Temuriylar davrida shakllangan davlat boshqaruvi, ilm-fan taraqqiyoti, bunyodkorlik an'analari hamda ma'naviy qadriyatlar bugungi yoshlarni komil inson etib tarbiyalashda muhim manba ekanligi asoslab beriladi. Shuningdek, ushbu tarixiy merosning Yangi Andijon bunyodkor yoshlarini tarbiyalashdagi muhim manba nomli bu maqola orqali ochib beriladi,bu bilan bir qatorda viloyatimiz yoshlarining yutug'lari haqida ma'lumot keltiriladi.

Kalit so'zlar: Buyuk Temur, temuriylar davri, ma'naviy meros, yoshlar tarbiyasi, vatanparvarlik, bunyodkorlik, Yangi Andijon.

Abstract. This article analyzes the historical and spiritual heritage of Amir Temur and the Timurid period in educating the younger generation in the spirit of patriotism. The principles of state governance, development of science, cultural achievements and traditions of construction during the Timurid period are considered as an important source for educating the youth as spiritually mature individuals. The importance of this heritage in shaping the young builders of New Andijan is also highlighted.

Keywords: Amir Temur, Timurid period, spiritual heritage, youth education, patriotism, construction, New Andijan.

Har bir xalqning ma'naviy taraqqiyoti uning boy tarixiy merosi va buyuk ajdodlari faoliyati bilan chambarchas bog'liqdir bu orqali ajdodlarga e'tibor kelajakka etibordir. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, milliy tarixni qayta o'rganish, buyuk ajdodlarimiz merosini tiklash va yosh avlodni shu meros asosida tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilgan edi. Bu orqali avlodlarimizga biz kimning ajdodlari ekanligimiz va ularga munosib bo'lishimiz kerakligiga e'tibor qaratiladi.

Buyuk Temur shaxsi nafaqat O'zbekiston, balki jahon tarixida ham muhim o'rin egallaydi. U buyuk sarkarda, dono davlat arbobi va bunyodkor sifatida tarix sahifalarida o'chmas iz qoldirgan. Temuriylar davrida ilm-fan, madaniyat, adabiyot va me'morchilik rivojlanib, Markaziy Osiyo mintaqasi dunyoning yirik ilmiy va madaniy markazlaridan biriga aylangan.Amir Temur haqida mamlakatimizda birinchilardan bo'lib o'rgangan olimlarimizdan biri professor Poyon Ravshanov eslamasdan ilojimiz yo'q bu inson umrini Amir Temur davlatini o'rganligi bobomiz haqida ko'plab ma'lumotlarni kelajak avlodga yetkazgan olimlarimizdandir. P.Ravshanovning "Yoshlik" jurnalining 1989 yil 10-sonida chiqarilgan "Sohibqiron muhri" maqolasi katta qiziqishga sabab bo'ldi. Olimni ilm yo'lini o'rganar ekanmiz Temurshunos olim deb aytishimiz mumkin. Bu inson Salohiddin

International Conferences
Open Access | Scientific Online | Conference Proceedings
INTERNATIONAL CONFERENCES OF PRACTICE

Toshkandiyning “Temurnoma” asarini nashrdan chiqardi. 1990-1991 yillarda Temurnoma asarini 400 nusxada chiqarilganligi kitobxonlarga yetkazildi. Mustaqillik yillarida nihoyat sermahsul olimning usgbu yo‘nalishdagi ko‘plab salmoqli kitoblari nashr etildi: Amir Temur Vatani, Temurbek va amir Husayn qissasi, Amir Temur sulolasi, Oqsaroy Tarixi, Temuriylar silsilasi nomli kitoblari nashr etilgan maqolalari orqali Amir Temur shaxsiga e’tibor kuchayganligini ko‘rishimiz mumkin.Birinchi Prezidentimiz I.Karimov o‘z vaqtida taniqli ijodkor va temurshunos olim sifatida sermahsul faoliyatiga yuksak baho bergan edi. so‘zlarida fidoiy olim, xaqiqiy vatanparvar, uning asarlari orqali yoshlar tariximizni bilib oladi.Umuman, maktablarda uning asarlari fan qilib o‘qitilishi kerak degan fikrlarni bildirgan.Tariximizning zukko bilimdoni qilgan ishlari yosh avlodlarimiz tarbiyasiga ham alohida o‘rin tutadi.[2,6]Hammaga ma’lumki bobomiz haqida ko‘plab yozuvchilar, olimlar tomonidan yozilgan ilmiy kitoblar, maqolalar bugungi yoshlarimiz kimni avlodi bo‘lganligi va ularga munosib bo‘lishga harakat qiladi. Viloyatimiz yoshlari ham kundan-kunga yaxshi natijalarga erishmoqdalar har sohalada o‘zlaring yaxshi natijalarini qayd qilib borishi quvonarlidir. Amir Temur kitoblarini yaxshi ko‘rib o‘qish orqali tariximizga e’tibor bobomizga munosib farzand bo‘lishiga undaydi.

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli bunyodkorlik ishlari, yangi shahar va infratuzilmalarni barpo etish jarayoni yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashni talab etadi. Ayniqsa, Yangi Andijon shahrining barpo etilishi yoshlarni bunyodkorlik, fidoyilik va mas’uliyat ruhida tarbiyalash uchun muhim imkoniyat yaratmoqda. Bobomizni “Temur tuzuklari” da Agar shahar-u qishloqlarda jang boshlansa, begunoh bolalar, keksalar, ayollar ham nobud bo‘lishi mumkin edi. Temurbek shuni o‘ylab, oltmish yigiti bilan tunda Samarqanddan chiqib ketadi va uning janubidagi tog‘larda bir kishi ham bizga kelib qo‘shimcha kuchlar kelishini kutadi.”Lekin bir kishi ham bizga kelib qo‘shilmadi,-deb hikoyasini davom ettiradi Temurbek.-shundan keyin Ilyosxo‘ja mening Xorazmga yurish qilayotganidan xabar topib, o‘ziga bo‘ysunadigan Xiva hokimi To‘kal bahodirga xat yozgan va meni o‘ldirishni buyurgan ekan[5,20-21] bu voqeaga e’tibor bersak yurtga bo‘lgan muhabbat o‘ziga bo‘lgan ishonchni paydo qiladi.

Buyuk Temur – buyuk sarkarda va davlat arbobi. “Amir Sohibqiron maktabda o‘z tengqurlaridan saboqda o‘zib ketganligi. Balog‘at yoshiga yetguncha ilm, fanga va qur’on o‘rganligi manbalarda keltiriladi. Yoshligidan ot minish kamondan o‘q uzushni o‘rganligi jajji qalbida vatanga bo‘lgan muhabbat tuyg‘usi shakllanganligini ko‘rishimiz mumkin. Undagi teran bilim shijoatga payvand bo‘ldi va shundan so‘ng amirlik mansabini egallaydi. Mamlakat tepasiga kelishi bilan obodonlashtirish ishlariga alohida e’tibor qatganligi ko‘plab davlatlar bilan elchilik aloqalarini shaklantirishga alohida e‘tibor berganligi, bozorlar, karvonsaroylar, masjid va madrasalar qurilishiga katta e’tibor qaratganli yurtini rivojlanishiga olib kelganligini ko‘rishimiz mumkin.

Buyuk Temur XIV asrda Markaziy Osiyoda markazlashgan kuchli davlat barpo etgan buyuk sarkarda sifatida tarixda mashhurdir. U o‘zining harbiy iste’dodi, siyosiy donoligi va qat’iyati bilan qisqa vaqt ichida yirik imperiya barpo etishga muvaffaq bo‘lgan.

Temurning davlat boshqaruvidagi asosiy tamoyillari adolat, tartib-intizom va qonun ustuvorligiga asoslangan edi. U mamlakatda tinchlik va barqarorlikni ta’minlashga katta

International Conferences
Open Access | Scientific Online | Conference Proceedings
INTERNATIONAL CONFERENCES OF PRACTICE

e'tibor qaratgan. Temurning davlat boshqaruvi haqidagi qarashlari "Temur tuzuklari" asarida ham aks etgan bo'lib, unda davlatni boshqarishning muhim qoidalari bayon etilgan.

Buyuk Temur ilm-fan va madaniyat rivojiga ham katta e'tibor qaratgan. Uning davrida Samarqand shahri ilm-fan va madaniyat markaziga aylangan. Bu yerda ko'plab madrasalar, kutubxonalar va ilmiy markazlar tashkil etilgan.

Temuriylar davri ma'naviy merosi. Temuriylar davri tarixda ilm-fan va madaniyat rivojining yuksak bosqichi sifatida baholanadi. Bu davrda ko'plab buyuk allomalar yetishib chiqdi.

Mirzo Ulug'bek astronomiya fanining rivojiga ulkan hissa qo'shgan olim sifatida tanilgan. Uning rasadxonasi va ilmiy ishlari jahon ilm-fani tarixida muhim o'rin tutadi. Shuningdek, Alisher Navoiy turkiy adabiyotning rivojiga ulkan hissa qo'shgan buyuk shoir va mutafakkir hisoblanadi.

Temuriylar davrida me'morchilik ham yuksak darajada rivojlandi. Samarqand, Hirot va boshqa shaharlarda bunyod etilgan me'moriy obidalar bugungi kunda ham jahon madaniy merosining muhim qismi hisoblanadi.

Yosh avlod tarbiyasida temuriylar merosining o'rni. Yosh avlodni barkamol inson etib tarbiyalashda tarixiy merosning ahamiyati nihoyatda katta. Buyuk Temur shaxsi yoshlar uchun jasorat, qat'iyat va vatanparvarlik timsoli hisoblanadi.

Temuriylar davrida ilm-fanga bo'lgan e'tibor yoshlarni bilim olishga undaydi. Shuningdek, bu davrda shakllangan ma'naviy qadriyatlar yoshlarni mehnatsevarlik, halollik va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Bugungi globallashuv sharoitida yoshlarning milliy o'zligini anglashida tarixiy meros muhim rol o'ynaydi. Shu sababli ta'lim jarayonida temuriylar davri tarixini chuqur o'rganish katta ahamiyat kasb etadi.

Yangi Andijon bunyodkorlarini tarbiyalashda tarixiy merosning ahamiyati

Bugungi kunda O'zbekistonda yangi shaharlar va zamonaviy infratuzilmalarni barpo etish jarayoni jadallik bilan davom etmoqda. Yangi Andijon shahri ham ana shunday yirik bunyodkorlik loyihalaridan biridir. Yoshlarimizga "Temur tuzuklari asarini" o'rganish orqali vatanga bo'lgan muhabbat hissi va sadoqat ruhida tarbiyalashga hizmat qiladi.

Yangi Andijon shahrining qurilishi nafaqat iqtisodiy rivojlanish, balki yoshlarni bunyodkorlik ruhida tarbiyalash uchun ham muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonda yoshlarning ajdodlarimiz merosiga hurmat bilan qarashi va ularning an'analarini davom ettirishi muhim hisoblanadi.

Buyuk Temur davrida amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlari bugungi yoshlar uchun muhim ibrat bo'lib xizmat qiladi. Temuriylar davrida qurilgan shaharlar va me'moriy obidalar bunyodkorlik an'analarining yorqin namunasi hisoblanadi. Samarqand shahrida yaratgan bog'lari uni ichida tabiat manzaralari hatto chet –el sayyohlarini-yu elchilarini diqqatini tortganligini ko'plab mehmonlarni bog'larda kutib olganligini manbalarda ko'p uchratishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytganda, Buyuk Temur va temuriylar davrining tarixiy hamda ma'naviy merosi yosh avlodni vatanparvar, bilimli va bunyodkor insonlar etib

International Conferences
Open Access | Scientific Online | Conference Proceedings
INTERNATIONAL CONFERENCES OF PRACTICE

tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega bo‘laoladi. Bu orqali yoshlarni o‘zidagi ishonch va qa’tiyatli bo‘lishga erishish mumkin. Ayniqsa, Yangi Andijon kabi zamonaviy shaharlarning rivojlanishi jarayonida yoshlarni ajdodlarimizning boy merosiga tayangan holda tarbiyalash muhim vazifalardan biridir. Temuriylar davrining ilm-fan, madaniyat va bunyodkorlik an’analari bugungi yoshlar uchun muhim ibrat maktabi bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent.2008
2.Buyuk Temur – buyuk sarkarda. – Toshkent.2023
3.Mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent..2017
4.O‘zbekiston tarixi. – Toshkent.Darslik, 7-sinf, 2023
5. “Temur tuzuklari” 2005-yil 20-21bet
6.T.Toshlonov. “Oqsaroy”. “Ma’rifat” gazetasi. 2002. 9 oktabr, 6-bet.

International Conferences
Open Access | Scientific Online | Conference Proceedings
INTERNATIONAL CONFERENCES OF PRACTICE